

SUD TIBBIY EKSPERTIZASINING NUTQIY JIHATI

Qurbanova Mehriniso To`xtamurodovna,
TerDPI magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada sud tibbiy ekspertizasining nutqiy jihatni va uning o`ziga xos xususiyatlari, bugungi tilshunoslikda tutgan o`rni haqida so`z boradi. Aytish joizki, sud tibbiy ekspertizasining nutqiy jihatini tahlil qilish sud tibbiy ekspertizasida faoliyat yurituvchi ekspertlar nutqidan namunalar asosida olib borildi. Ekspertlar nutqiga xos jihatlar, ularning nutqida tez-tez takrorlanuvchi so`zlar haqida batafsil ma`lumot berildi.

Kalit so`zlar: sud tibbiy ekspertizasi, nutqiy yondashuv, ekspert, nutq tahlili, uslublararo ko`rinish.

SPEECH OF THE COURT MEDICAL EXAMINATION

Kurbanova Mehriniso Tukhtamurodovna,
TerSPI Masters

Annotation

This article discusses the speech aspect of forensic medical examination and its peculiarities, its role in modern linguistics. It should be noted that the analysis of the speech aspect of forensic medical examination was carried out on the basis of samples from the speech of experts working in forensic medical examination. The experts provided detailed information on the specifics of the speech, the words that are often repeated in their speeches.

Keywords: forensic medical examination, speech approach, expert, speech analysis, interdisciplinary approach.

РЕЧЬ СУДЕБНОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Курбанова Мехринисо Тухтамуродовна,
Мастера ТерДПИ

Аннотация. В данной статье рассматривается речевой аспект судебно-медицинской экспертизы и ее особенности, ее роль в современном языкоизнании. Следует отметить, что анализ речевого аспекта судебно-медицинской экспертизы проводился на основе образцов из речи экспертов, работающих в судебно-медицинской экспертизе. Эксперты предоставили подробную информацию о специфике выступления, словах, которые часто повторяются в их выступлениях.

Ключевые слова: судебно-медицинская экспертиза, речевой подход, эксперт, речевой анализ, междисциплинарный подход.


Barchamizga ma'lumki, tilshunoslik keng qamrovli soha hisoblanib, u o'zida ko`plab sohalarni mujassam etadi. Qaysi yo`nalishga qaramang, xoh tibbiyat, xoh advokatura yoki boshqalar ularning barchasining nutqiy muloqoti tilshunoslar tomonidan tahlil qilinadi va amaliy ahamiyati ochib beriladi[8]. Biz esa ushbu maqolamizda sud tibbiy ekspertizasida faoliyat olib boruvchi ekspertlarning nutqini tahlil qilishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ydi.

Sud tibbiy ekspertizasining nutqiy jihatini tahlil qilganda shuni e`tiborga olish lozimki, masalaga qay jihatdan yondashilyapti , nutqiy vaziyatning qaysi ko`rinishi tahlil qilinyapti – buni e`tiborga olish lozim. Bu esa o`rganilayotgan mavzuning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Demak. sud tibbiy ekspertizasining nutqiy tahlilini ikki ko`rinish yuzasidan olib borish asosili, xususan[5]:

- Sud tibbiy ekspertizasining og`zaki nutqiy tahlili;
- Sud tibbiy ekspertizasining yozma nutqiy tahlili.

Sud tibbiy ekspertizasi stilistik jihatdan ko`rib chiqiladigan bo`lsa, og`zaki nutqiy jihat o`zida so`zlashuv uslubiga xos birliklarni mujassam etsa, yozma nutqiy jarayonda rasmiy uslubga xos elementlar yaqqol ko`zga tashlanadi.

Sud tibbiy ekspertizasiga lingvistik jihatdan yondashuvning ko`rinishlari(1-chizma).



Sud tibbiy ekspertizasining og`zaki
nutqiy tahlili

Sud tibbiy ekspertizasining yozma
nutqiy tahlili

Sud tibbiy ekspertizasi yozma nutqiy jihatiga e`tibor bersak, unda o`sha soha faoliyatiga doir elementlar tez-tez ko`zga tashlanadi, xususan, **ekspertlar xulosasiga ko`ra, tekshiruv natijasida, gumonlanmoqda, aniqlash** va hokazo.

Ma`lum bo`ladiki, ular yozma nutqiga xos matnlarda , asosan, tayyor qolipga ega birikmalarni qo`llash faol tus olgan va bu ular matnida takroriylik mavjud ekanligini anglatadi[3] . Og`zaki va yozma matnlar tahlili o`rtasida umumiylilik ham mavjud bo`lib, takroriylik ana shu umumiylilik hosil qilishga xizmat qiladi.

Sud tibbiy ekspertizasining og`zaki nutqiy jihatini tahlil qilar ekanmiz, quyidagi og`zaki so`zlashuv jarayonida morgda faoliyat yurituvchi sud tibbiy eksperti bilan bo`lgan suhbatdan yozib olingan ushbu matnga e`tibor qaratishimiz o`rinli:

“Kasbimizdagi juda muhim jihat – murdadagi jarohatlar unga hayotligida yetkazilganmi yo o`lganidan keyinmi, shuni aniqlash. Masalan, poyezd yo‘lida qolib ketgan student qizning murdasini olib kelishdi. Tergovchilar kelib, o‘z-o‘zini o‘ldirish deb taxmin qilishdi va tezroq ekspertiza qilib beringlar, bu ishni yopish kerak, deyishdi. Biz tekshirganimizda ma'lum bo'ldiki, qizning bachadoni teshilgan, yaqinda abort qilingan va qon yo‘qotishdan o‘lim kelib chiqqan. Boshqa jarohatlar o‘limdan keyin ro‘y bergan”. Ushbu nutqiy parchada sud tibbiy ekspertizasiga doir ilmiy terminlar mavjud, xususan: **aniqlash, tergovchilar, taxmin qilishdi, ekspertiza qilib bermoq, yopish kerak, ma'lum bo'ldiki, abort qilingan, ro‘y bergan** . Stilistik jihatdan so`zlashuv uslubiga xos. Bugungi kunda tilshunoslik sohasi yanada keng taraqqiy etib, u kirib bormagan soha deyarli qolmadi. Psixologiya, din, tibbiyat, yuridik soha – bularning barcha-barchasi tilshunoslik fanining o`rganish obyektiga aylanib ulgurdi. Qayd etib o`tish lozimki, sohaviy yo`nalishlar lingvistik tahlilini amalga oshirish ushbu yo`nalishlarning mohiyatining keng tarzda ochib berilishiga hamda ulardagи mavzuiy ko`lamning kengroq doirada ochib berilishiga xizmat qiladi[3]. Biz tadqiq etmoqchi bo`lgan ushbu maqolada ham sud tibbiy ekspertizasining o`ziga xos nutqi hamda uning tilshunoslikda tutgan o`rni borasida so`z yuritiladi.

Sud tibbiy ekspertizasi nutqi lingvistik ekspertologiya yo`nalishining ma`lum tarmog`i hisoblanadi. Ushbu sohada qo`llaniluvchi nutqiy muloqot(og`zaki hamda yozma) bu sohaning tadqiq obyekti sanaladi. Bu sohaning o`ziga xos ishslash metodlari, yozma matnlari , sud jarayonlari, qonun hujjatlari mavjud bo`lib, ularning tahliliy lingvistik jihatdan o`rganilishi sohaning mazmuniy jihatdan keng taraqqiy etishiga yordam beradi[5].



Sud tibbiy ekspertizasining lingvistik tahlili uch guruh asosida ish olib boradi:

Ushbu sohaga doir huquqiy hujjatlarning lingvistik tahlili.

Sud jarayonlarida qo`llaniluvchi og`zaki nutq tahlili.

Sud tibbiy ekspertizasining har ikkala guruh uchun mavjud tilshunoslik xulosasini amalga oshirish[6].

Sud tibbiy ekspertizasining lingvistik tahlili bir tomonlama yo`nalish hisoblanmaydi, ya`ni u o`z ichiga xilma-xil izlanuvchilarining hamda ekspertlarning bu borada olib borgan tadqiqotlarini ham qamrab oladi. Sud tibbiy ekspertizasining tilshunoslik doirasida o`rganilishi XX asrlarda amalga oshirilgan bo`lib, bu boradagi xilma-xil matnlarni tadqiq etish orqali sohaviy matnlarning ilmiy jihatlarini asoslash mumkin. Sud tibbiy ekspertizasiga oid matnlar quyidagi mazmunda bo`lishi mumkin, ya`ni vafot etgan shaxsning o`limiga sabab bo`luvchi omillar, tanaga yetkazilgan jarohatlarning qay holatda amalga oshirilganligi, uning og`ir turdamasi yoki yengil turda ekanligi, gumonlanuvchi shaxs, ayblanuvchi, jabrlanuvchi hamda u haqidagi ma`lumotlar sud tibbiy ekspertizasiga oid nutqiy muloqotning asosiy elementlari hisoblanadi[4]. Quyidagi sud tibbiy ekspertizasiga oid matnning lingvistik tahlilini amalga oshirsak: “1983-yil 18-iyunda tug‘ilgan marhum S.Q. shu yilning 10-avgustida soat 11:00 larda “Tuyabo‘g‘iz” oilaviy shifokorlik punktida, oilaviy shifokor ko‘rigidan o‘tkazilib, emlashga monelik qiluvchi holatlar aniqlanmagach, vaksinator hamshira tomonidan emlangan. Vaksina olgandan keyin 20 daqiqa davomida oilaviy shifokor kuzatuvida bo‘lgan va aks ta’sirlar kuzatilmagach, uyiga ruxsat berilgan. Ekspertizada marhum S.Q.ning tanasida jarohat izlari aniqlanmadи”[8].

Yuqorida keltirilgan matnning lingvistik tahlili quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

matnning umumiyyatini;

matnda qo`llanilgan so`zlar tahlili;

matnning grammatik tahlili;

matnning sintaktik tahlili[7].

Ushbu jihatlar tahlilini amalga oshirish sud tibbiy ekspertiza nutqining shakily hamda mazmuniy uyg`unligi asosida shakllantiriladi. Yuqoridagi namuna sifatida keltirilgan matn, avvalo, ma`lumot berish uchun yozilgan matn sanaladi. Umuman olganda, sud tibbiy ekspertizasiga oid matnlarning maqsadi ma`lumot berishdan iborat hisoblanadi.

Leksik nuqtayi nazardan esa matnda sohaga xos bo`lgan istilohlar mavjud, ular quyidagilardir: marhum, monelik qiluvchi holatlar, kuzatuvida bo`lmoq, aks ta`sir kuzatilmagach, ekspertizada, jarohat izlari aniqlanmadi. Keltirilgan so`zlarning barchasi adabiy til qatlamiga oid hisoblanib, unda noadabiy qatlamni shakllantiruvchi leksika, ya`ni shevaga oid so`zlar, varvarizmlar, vulgarizmlar, argo, jargon so`zlar mutlaqo mavjud emas. Bunday turdagи matnlarning o`ziga xos jihatи shundan iboratki, ular ekspressiv-bo`yoq dor leksikadan xoli matnlar sanaladi. Bundan tashqari, qayd etib o`tishimiz lozimki, sud tibbiy ekspertizasiga oid matnlarda qo`llaniluvchi sohaga xos istilohlarni tuzilishiga ko`ra ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

sodda holatda qo`llanilgan so`zlar: marhum, ekspertizada...

murakkab holatda qo`llanilgan so`zlar: monelik qiluvchi holatlar, kuzatuvida bo`lmoq, aks ta`sir kuzatilmagach, jarohat izlari aniqlanmadi.

Matnning grammatik tahlili xususida to`xtaladigan bo`lsak, aytish mumkinki, matnda morfemik qo`shimchalar to`g`ri qo`llanilgan, matndagi fe`llar, asosan, majhul nisbat asosida shakllantirilgan: o`tkazilib, aniqlanmagach, emlangan, kuzatilmagach, ruxsat berilgan, aniqlanmadi. Demak, sud tibbiy ekspertizasiga oid matnlarda asosiy holatda qo`llaniluvchi fe`l bu majhul nisbatda qo`llaniluvchi fe`l hisoblanar ekan. Bundan tashqari, ot, sifat, fe`l so`z turkumlari asosiy qo`llaniluvchi so`z turkumlari hisoblanadi.

Matnning sintaktik tuzilishiga oid xususiyatlardan biri bu sud tibbiy ekspertizasiga oid yozma nutqda ifodaluvchi matnlarda qo`llaniluvchi gaplar, asosan, qo`shma gap tarzida ifodalanadi. Qo`shma gapning aralash murakkab turi bu matn uchun xos: “1983-yil 18-iyunda tug‘ilgan marhum S.Q. shu yilning 10-avgustida soat 11:00 larda “Tuyabo‘g‘iz” oilaviy shifokorlik punktida, oilaviy shifokor ko‘rigidan o`tkazilib, emlashga monelik qiluvchi holatlar aniqlanmagach, vaksinator hamshira tomonidan emlangan”.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, sud tibbiy ekspertizasiga oid matnlarni tahlil qilishda matnning har bir jihatiga alohida e`tibor berish, uning mazmunini aniqlash, matnning umumiylar xarakteristikasini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning nutqida ifodalangan leksik qatlama ushbu soha vakillarining boshqa sohalardan ajratib turuvchi asosiy xususiyati hisoblanadi. Sud tibbiy ekspertizasiga doir matnlardagi grammatik jihatlar esa matndagi fe`llarning qay tarzda qo`llanishi, ot so`z turkumining qay holatda ifodalanishi, sifatga oid so`zlarning

matnda aks ettirilishi orqali yaqqol namoyon bo`ladi. Sintaktik jihatdan esa so`zlarning birikmaviy tarzda ifodalanishi, gapning, asosan, qo`shma gap ko`rinishiga ega ekanligi bilan ko`zga tashlanadi.

Sud tibbiy ekspertizasini nutqiy jihatdan tahlil qilish tilshunosdan ushbu sohadan biroz xabardor bo`lishni talab qiladi. Sud tibbiy ekspertizasi nutqiy jarayoni tibbiyot vakillari nutqiy muloqotiga o`xshab ketsa-da, biroq undan qonunga doir terminlarning faol qo`llanilishi bilan farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baranov A.N., Linguistic Examination of Texts: Theoretical Grounds and Practice, Science, Moscow 2013 [In Russian].
10. To'rayeva.D. Linguistic expertise as a branch of legal linguistics. //Academicia. Vol. 10 Issue 12, December 2020
11. Argamon, S., Koppel, M., Fine, J., and Shimoni, A. R. (2003). Gender, genre, and writing style in formal written texts. Text, 23(3).
12. Chambers, J. K., Trudgill, P., and Schilling-Estes, N., eds. (2004). The Handbook Of Language Variation And Change(London: Blackwell).
2. Coulthard M., Jonson A. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. New York: Routledge, 2007. 237 p.
3. Olsson J. Forensic Linguistics. 2nd.ed. London: Continuum International Publishing Group, 2008. 256 p.
4. Galyashina E.I. Preliminaries in Forensic Speech Science. Moscow: STENCY, 2003. 236 p. (In Russ.)
5. Galyashina E.I. Forensic linguistic examinations in trademark disputes. The Russian Laws. Experience. Analysis. Practice = Zakony Rossii: opyt, analiz, praktika. 2006. No. 12. P. 77–94. (In Russ.)
6. Galyashina E.I. Forensic evaluation of verbal extremism. Expert-criminalist. 2009. No. 2.P. 14–. (In Russ.)
7. DmitryV. BakhteeV Forensic examination of anonymous handwritten documents in order to obtain data on the identity of their author and performer. ORCID: 0000-0002-0869-601X Criminalistics Department Ural State Law University Yekaterinburg, Russia. P-11

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st May, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

8. Musulmonova K. O‘zbek yozma matnlarida lingvistik ekspertiza o‘tkazish maqsadi va asoslari. Wissenschaftliche Ergebnisse und errungenschaften:2020. 25dezember. B-97
9. Musulmonova K. Linguistic exam and its meaning//Academicia. Vol. 10 Issue 11, November 2020



E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings